

## MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR BIRLIGI

Xusanov Saidrasul

*o'qituvchi,*

*Farg'ona davlat universiteti,*

*O'zbekiston, Farg'ona shahar*

**Annotatsiya:** *Qadriyatlar har doim insonlarni mehr-oqibatga, o'zaro hamjihatlikka chorlovchi, asrlardan-asrlarga o'tib xalq turmush tarzining ajralmas qismiga aylangan moddiy va ma'naviy jarayonlarning sa'ra namunalaridir. Zero, qadriyat bu - millatning o'tmishi, buguni va kelajagini belgilab beruvchi muhim omildir. Bizga ma'lumki har bir xalqning o'ziga xos qadriyatlar silsilasi mavjud bo'lib, u xalqning ko'zgusi hisoblanadi. Shuning asosida millatning turmush tarzida, madaniyati va ma'naviyatida, ongi-shuurida, o'zaro muloqotida aks etib, o'z ifodasini topadi. Qadriyatlar har bir xalqning qon-qonigacha singib, insoniyat uchun muhim ahamiyat kasb etadi va shu tariqa, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiluvchi, shu tufayli ular tomonidan qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari hodisalaridir.*

**Kalit so'zlar:** *jamiyat, qadriyat, milliy qadriyat, umuminsoniy qadriyat, fuqarolik jamiyati, moddiy va ma'naviy madaniyat.*

Qadriyatlar – inson uchun biror ahamiyatga ega bo'lgan voqelikning shakllari, narsalar, voqealar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblar qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha. U jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy taraqqiyotining mahsuli. Shuning uchun ham qadriyatlarda zamonning ruhi, imkoniyatlari, o'sha zamonda yashagan odamlarning orzu-umidlari, istaklari, talab va ehtiyojlari o'z ifodasini topadi. Zamonlar o'tishi bilan qadriyatlarning mazmuni va ma'nosi o'zgarib boradi. Xuddi shuning uchun ham qadriyatlarning tarbiyaviy ahamiyatiga baho berganda konkret tarixiy shart-sharoitlarni doimo nazarda tutish kerak.

Inson qadri, uning sha'ni, or-nomusi, milliy g'ururi, albatta, milliy qadriyatlar bilan bevosita bog'liq.

Milliy qadriyatlar – har bir millatning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi falsafiy tushuncha bo'lib, o'sha millat bosib o'tgan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida shakllangan milliy madaniy meros xazinasiga qo'shgan hissasini, ulushini ifodalaydi. Xuddi shu milliy o'ziga xoslik, o'ziga moslik millat madaniyatida, adabiyotida, san'atida, tilida, dinida, tarixiy xotirasida, yashash, ishlash va fikrlash tarzida, urf-odatlarida, rasm-rusumlarida, bayramu-

sayillarida o'z ifodasini topadi. Bir so'z bilan aytganda, milliy qadriyatlar – milliy ma'naviy madaniyat ifodasi bo'lib, har bir millatning insoniylik xazinasiga qo'shgan munosib hissasining hosilasidir.

O'z millatining haqiqiy tarixini anglagan, tarixiy xotiraga ega bo'lgan kishilarda milliy o'zlikni anglash va millat sha'nini himoya qilish mayli kuchli bo'ladi. Mustaqillik yillarida bu yo'lda davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan juda ko'p tadbirlar amalga oshirilib, sobiq sho'rolar sharoitida milliy ongni xiralashtirish qabohatlarini tugatish choralari ko'rildi. Millatlar mavjud ekan milliy ong ham mavjud bo'laveradi. Milliy ongni yuksaltirishga e'tibor bermagan millatning o'zi yo'q. Milliy ong millat bilan chambarchas bog'liqligi uchun ham u millat ravnaqi bilan barobar taraqqiy etib boraveradi.

Milliy ong shunday g'oyalar, fikrlar tizimiki, u har bir millatning tarixi, taqdiri va kelajagi bilan bog'liq bo'lgan manfaatlar, maqsadlarni ifodalash bilan birga, millat vakillari faoliyatini maqsad, yo'nalishlar tomon boshqarib turadi. Milliy ong yuqori bo'lib, u taraqqiyot jarayonida faollashib borgan taqdirdagina o'z natijasini beradi. Milliy ong milliy manfaatlar sifatida, moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarish, o'zga millatlar bilan o'zaro munosabatlar jarayonida ham shakllanib, rivojlanib boradi.

Mana shu jarayondagina millatga xos bo'lgan xususiyatlar shakllanadi va bunday xususiyatlar millatni boshqa millatlardan ajratib turadi. Milliy ongning ta'sirida shakllangan bunday xususiyatlar milliy manfaatlar va maqsadlarni shakllanishida etakchi omil vazifasini bajaradi.

Yurtimizda tinchlik, barqarorlik, millatlararo totuvlikni ta'minlab berishni o'zining asosiy vazifalaridan biri deb tushunadigan komil insonni voyaga etkazishda milliy tarbiyaning ahamiyati benihoya kattadir.

Mamlakatda yashayotgan fuqarolar turli millatlarga mansub bo'lsalar ham o'larni mushtarak maqsadlar birlashtiradi. Bu esa barcha millat vakillari umumiy ma'suliyatini his qilib ishlashlarini taqazo etadi. Fuqarolikni shakllanishi va rivojlanishi ta'minlash, millatlar o'rtasidagi totuvlikni kuchaytirishi ko'p millatli mamlakatda ro'y berayotgan ma'naviy uyg'onish poydevorini yanada mustahkamlaydi.

Jahon tsivilizatsiyasidan ajralgan, o'zining alohida tarixiga ega millat bo'lgan emas. Millatlar boshqa xalqlarning yutuqlaridan foydalanmay turib rivojlana olmaydilar. Barcha xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy rivojlanish tarixi bir-biri bilan chirmashib, taraqqiy etib kelgan. Shuning uchun ham har bir millat o'z doirasida cheklanib qolmay, boshqa millatlar va xalqlar bilan birgalikda taraqqiy etishi lozim.

Butun jahon iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyoti xalqlar, millatlar, elatlar, urug'lar va qabilalar tarixiy, taqdirlarining o'zaro bog'lanishi, chirmashuvi, bir-

birini to'ldirishi asosida amalga oshadi. Agar biror millat boshqa millatlar bilan o'zaro o'xshash xususiyatlarga ega bo'lmaganda, iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqada bo'lmaganda, u ulardan o'rganmagan va o'zidagi yutuqlarni boshqalar bilan baham ko'rmaganda edi, u tanazzulga uchragan millat bo'lgan bo'lur edi. Bunday millat jahon tsivilizatsiyasining samaralaridan foydalana olmagan bo'lardi.

Xalqlarning ulug'vorligi milliy mahdudlikda emas, balki umuminsoniy xususiyatlarga ega ekanligida, jahon tsivilizatsiyasiga qo'shadigan hissasidir. Ayni chokda boshqa bir narsani ham e'tibordan sbqit kilmaslik kerak. Milliy manfaatlarni, milliy qadriyatlarni umuminsoniy manfaatlar va qadriyatlarga qarama-qarshi qo'yish, muayyan ijtimoiy-iqtisodiy va boshka muammolarni qaysidir millat va elatning manfaatlariga xilof ravishda xal etishga intilish, milliy manfaatlar baxonasida milliy xudbinlikni, tekinxo'rlikni olqishlash millatlararo munosabatlar taraqqiyotiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Bir millatning maifaati va qadriyatlari boshqa millatnikidan ajratilmagan holda o'rganilishi kerak.

Millatlararo totuvlik milliy va umuminsoniy qadriyatlar birligi va bog'liqligini cho'qur anglash natijasi xamdir. Millatlarning manfaati, qadriyatlari asrlar mobaynida o'zaro bog'liqlik holda rivojlantirilib kelingan. Mintaqamizdagi bu boradagi yuksalish davrlari ushbu bog'liqlik asosida amalga oshirilgan. Turli millatlar o'rtasidagi ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy sohadagi aloqalar hozir ham milliy uyg'onishga, millatlararo totuvlikni ta'minlab berish jarayoniga ijobiy ta'sir qilmoqda.

Bizning davrimizda davlatlararo munosabatlarda umuminsoniy kadriyatlar axloq va ma'naviyatning ustunligini e'tirof etish, ularni turli ijtimoiy-iqtisodiy tuzumli mamlakatlar o'zaro hamkorligining umumiy yo'nalishini hosil etuvchi asosiy omil sifatida karor toptirish tamoyili tobora yaqqolroq ko'zgatashlanmokda.

Umuminsoniy qadriyatlarni nazar-pisand qilmaslik — jahon hamjamiyatiga, uning ma'naviy sog'lomligiga tuzatib bo'lmas darajada ziyon-zahmat yetkazish demakdir.

Mustaqillik qo'shni mamlakatlar, turli millat vakillari bilan barcha sohalardagi aloqalarni rivojlantirib borish imkoniyatlarini oshirib bormoqda. Asosiy vazifa bu imkoniyatlardan oqilona foydalana bilishdir. Umuminsoniy qadriyatlar, milliy madaniyatlar rivojiga katta hissa qo'shsa ham, aslo uning o'rnini egallay olmaydi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi bog'lanishlar bugungi kunda yangi mazmun kasb etmoqda, o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lmoqda. Bu borada kishalar o'rtasidagi birlik va birdamlik, tenglik va teng xuquqiylik,

insonparvarlik, rahm-shavqat, mehr-muruvvat, adolatparvarlik, baynalminallik singari qadriyatlarnig o'zni ayniqsa kattadir.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni chuqur va xolisona o'rganish millatlararo totuvlikni ta'minlab berish jarayonini tezlashtiradi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq yurtimizda yashayotgan millatlar madaniyati taraqqiyotiga keng yo'l ochib berildi. Toptilgan, kamsitilgan milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar qayta tiklandi. Umuminsoniy qadriyatlar o'zining mazmuni, mohiyati, keng miqiyosda amal qilishi, dunyodagi ko'plab xalqlar, millatlar, elatlarning o'tmishidagi, hozirgi va kelajak taraqqiyoti bilan chambarchas aloqadorlikda ekanligi, o'zida jahon tsivilizatsiyasining yaxlit bir butunligini ifodalanganligi bilan milliy qadriyatlardan farq qiladi.

Umuminsoniy qadriyatlar xilma-xil bo'lib milliy nizolarni oldini olish, millatlararo totuvlikni ta'minlab berish xam uning asosiy qadriyatlaridan hisoblanadi. Umuminsoniylik alohida millat qadriyatlarini butun olamga targ'ib qilish yo'li bilan emas, balki barcha millat va elatlarning qadriyatlarining avaylab-asrash, uyg'unlashtirish, xurmat qilish va jahondagi milliy xilma-xillikning umumbashariy xilma-xillik bilan uzviyligini anglash orqali boyib boradi.

Umuminsoniy qadriyatlar barcha millatlar, elatlar, xalqlarning maqsad intilishlarining yaxlitligi va umumiylikni ifodalaydi.

Turli ijtimoiy-siyosiy tuzumni davlatlar o'z milliy qadriyatlarini, umuminsoniy qadriyatlar bilan umumlashtirgan gungi kunda ham mavjud bo'lgan millatchilik singari illatlardan xoli qilgan holda ustunlikka erishtirish kerak.

Hozirgi umumbashariy muammolar mana shu masalaning umuminsoniy qadriyatlar nuqtai nazaridan turib xal qilinishiga xammadan ko'ra ko'proq majbur etmoqda.

Millatlararo totuvlikni ta'minlab berish, millatidan qa'tiy nazar barcha insonlarni omon qolishi ularning huquq va erkinliklari, umumjahon iqtisodiy mexanizmining yangi bosqichi, har tomonlama hamkorlik va qo'shnicilikning zaruriyatlari, ekologik, energetik muammolar va umuminsoniy boy tarixiy meros, insonlarga xos umuminsoniy fazilatlar, hozirgi dunyoning yaxlitligi va o'zaro bog'liqligi, uning ziddiyatlari mohiyatining o'zgarishi ularning asosiy, tub mohiyatli xususiyatlaridir.

Umumjahon tsivilizatsiyasi jarayonida barcha millatlar va yangi milliy hosilalarning roli oshgan hozirgi kunda xalqaro munosabatlar o'zining milliy xarakterini yo'qotmagan xolda o'zini borgan sari ko'proq darajada ayni xalqlar orasidagi munosabat sifatida ro'yobga chiqarmokda. Bunday vaziyatda «tashqi» (jahon miqyosi) va «ichki» (milliy) jihatlarni turli mustaqil sohalar

bo'yicha ajratish o'rinli ekani dargumon bo'lsa kerak. Zero, «jahon miqyosidagi» jihat «milliy» jihatga nisbatan olganda — mahalliy (sinfy, sotsial, milliy) muammolarga faqat arziyas tuzatishlar kirituvchi qandaydir «tashqi omil» emas, balki keng yoyiluvchi ichki reallikdir. Ayrim davlatlar va millatlar shakllanayotgan jahonshumul yaxlitlik elementlar sifatidagina hozirgi o'zaro bog'liq dunyoning mustahkam qismlariga aylanadi va chinakamiga tushunilishi mumkin.

Barcha jahon olimlari hozirgi umumbashariy muammolarni umuminsoniy maksadlardan kelib chiqib hal etmasdan turib, o'z milliy kelajaklarini dunyo bo'yicha mushtarak xavf-xatarlardan qurolli ixtilof, ekologik falokatlar, kashshoklik va ocharchilikdan, iqtisodiy, siyosiy va madaniy yagonalashuvdan, moddiy va ma'naviy meroslar xalokatidan qutkarib kolishi mumkin emas-degan xulosaga keldilar.

Dunyo xalqlari umumiy insonparvarlik kadriyatlarini va hamma uchun yagona bo'lgan shaxs huquqlarini hurmat qilishni kabul kilmagunlariga kadar ular oldida na butun xamjamiyat oldida turgan muammolarning birortasi ham muvaffakiyatli hal etilishi, xalqaro xavfsizlikning ham mustahkam himoya qilinishi mumkin emas.

Dunyoning barcha tinchliksevar davlatoari singari Mustaqil O'zbekistonda amalga oshirilayotgan millatlararo totuvlikni ta'minlab berishga qaratilgan siyosati xalqimizni o'tmishdan shakllanib kelgan insonparvarlik qadriyatlariga suyanadi.

Umuminsoniy va milliy qadriyatlarning o'zaro bog'liqligi shu qadar qat'iyki, ular bir-biri bilan shunchalik mustahkam «chatishib» ketganki, ularning loaqal birortasini «tushib» qolishi butun zanjirning uzilishiga olib kelishi mumkin. Butun insoniyatga tuzatib bo'lmaydigan zarar etkazishga kodir, tor ma'noda tushuniladigan milliy kadriyatlarning torozi pallasni bosib ketishi tufayli og'ish sodir bo'lmasligi uchun buni doim esda tutish lozim.

Hozir yagona jahon yaxlitligi doirasida mavjud bo'lgan mamlakatlar o'rtasida o'zaro ta'sir, birgalikda faoliyat ko'rsatish va yonma-yon suyanib rivojlanish qonunlarining ta'siri ko'zga tashlanmoqda. Bu esa kishilik jamiyatining tarixan belgilanib qolgan turmushini tubdan o'zgartirish konunlarini bir qadar tezlashtirib yubordi. Chunonchi, «uchinchi dunyo» davlatlari jahon xalqlarining ijtimoiy tajribasi va texnikaviy vositalarini o'zlashtirib, rivojlanishning an'anaviy tiplaridan jiddiy farq qiluvchi yangi tipini shakllantirmoqda.

Har bir xalq o'z milliy manfaatlarini, milliy qadriyatlarini e'tiborga olish bilan bir qatorda boshqa davlatlarning manfaatlarini hurmat qilishi kerak. Zero haqiqatdan tinchlik, yaxshi qo'shnicilik, har tomonlama xamkorlik,

o'zaro ishonch nafaqat omon qolish, balki ko'pgina ijtimoiy vazifalarni hal etishga, insonlarning siyosiy xukuklarini, milliy va ma'naviy boyliklari va meroslarini saqlash. orqali -umummilliy kadriyatlarni ta'minlash hamdir. Shu bilan birga dunyoda, ayrim mamlakatlardagi qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar, partiyalar, davlatlar va ular tartibotlarning uziga xos vazifalari real muammolar bo'lib kolaveradi.

Umuminsoniy va milliy kadriyatlarning o'zaro munosabatini dialektik tushunish mamlakat ichida ham, jahon maydonida ham samarali ta'sirchan siyosatni, iqtisodiyot va madaniyatni yaratish juda katta ahamiyatga ega. Darvoqe, faoliyatning istalgan soxasi uchun davlatlar xamjamiyatida yuz berayotgan o'zgarishlarni uz vaqtida payqash va hisobga olish muximdir.

Hozirgi davrdagi jarayonlarni tadqiq qilishga yangicha tafakkurni izchillik bilan qo'llash dunyoning chinakam ilmiy manzarasini yaratishga, uning davlatlar, siyosiy va jamoat tashkilotlarining uzaro ijobiy, bunyodkorona xamkorligini yulga kuyishga yordam beradi. Biz endilikda inson zotining mushtarakligini anglab eski andozalardan asta-sekin xalos bo'layapmiz, yangicha tafakkurda nafaqat tafovut, ixtiloflarni, balki yangicha hayot uchun g'oyat zarur bo'lgan tajribaning juda boy manbaini ham topmoqdamiz. Milliy qadriyatlarni umuminsoniy kadriyatlarga yunaltirish xukumatlar, siyosiy kuchlar, barcha ijtimoiy guruxlar va jamoalardan uz manfaatlari va faoliyatlarini xalqaro munosabatlarga insonparvarlik ruhini singdirish yo'li bilan qaratishni taqozo etadi. XX asrning ikkinchi yarmigacha tarixiy voqelik uzida yaxlit narsa sifatida tsivilizatsiyani, o'z-o'zini inkor etish imkoniyatiga ega emas edi, insoniyatga mangu mavjudot sifatida qaralar va uning o'zini saklash tug'risida g'amxo'rlik kilishga utkir extiyoj yuk edi. Endi umumiylikdan xususiylikka sari - aks ta'sir aloqa ham yuzaga keldi: individlar xayotini qo'llab-quvvatlash va takror xosil qilish butun kishilik zotini saqlab qolishga bevosita bog'lik bo'lib qoldi. Shu sababli uning omon qolishi to'g'risidagi g'amxo'rlik ob'yektiv ravishda kishilik borlig'ining o'z jisman mavjudligini saqlab qolish vositalariga bo'lgan azaliy ehtiyojlari singari ana shunday eng birinchi zaruriyatga aylanadi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketganini jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshayotgan jarayonlarda yaqqol ko'rish mumkin. Ayni vaqda mamlakatimiz jahon hamjamiyati bilan yaqin munosabatlarni kuchaytirishga, eng dolzarb muammolarni birgalikda hal etishga katta e'tibor qaratmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYORLAR:

1. N.Usmonov. Sotsiologiya. Ma'ruzalar matni. TATU FF. 2012 y.
2. A.Qambarov. Madaniyatshunoslik. Ma'ruzalar matni. FarDU. 2012 y.
3. Каримова, Г. Й. (2021). MORALITY AS AN IDEOLOGICAL METHOD OF FIGHTING SPIRITUAL THREATS. Экономика и социум, (6-1), 707-710.
4. Бозаров, Д. М., & Каримова, Г. Й. (2021). МУРАККАБ ИЖТИМОЙИ ТИЗИМЛАРДА ЎЗ-ЎЗИНИ ТАШКИЛЛАШТИРИШ МОДЕЛИНИНГ ЎРНИ. Oriental Journal of Social Sciences, 1(1), 1-9.
5. Каримова, Г. (2022). МАЪНАВИЯТ ВА МИЛЛИЙ ТАРБИЯ. Экономика и социум, (3-2 (94)), 612-615.
6. Zakirova, D. S. (2022). TALABALARDA MILLATLARARO MUNOSABAT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(6), 439-448.
7. Saidolimovna, Z. D. (2019). THE FORMATION OF INTERETHNIC COMMUNICATION CULTURE OF THE YOUTH: METHODOLOGICAL ANALYSIS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).
8. Abdulazizova, N. A., & Zakirova, D. S. (2016). VALUE OF DISTANCE LEARNING IN CONTINUING EDUCATION. Ученый XXI века, (12), 42-45.
9. Pulatova, N., & Xasanov, N. (2020). THE ROLE OF ENVIRONMENTAL EDUCATION IN MODERN EDUCATION. Мировая наука, (6 (39)), 60-62.
10. Pulatova, N. (2018). PROSPECTS DEVELOPMENT OF EDUCATION SYSTEM. Экономика и социум, (10 (53)), 65-67.
11. Egamberdieva, T. A., & Pulatova, N. R. (2020). METHODS OF USING AVESTO TEACHING IN THE FORMATION OF ETHNOECOLOGICAL CULTURE IN YOUNG PEOPLE. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(6), 271-277.
12. Umatkulov, T. (2023). The Importance of the " Five Important Initiatives" in the Development of Society and the Formation of Civic Positioning Among Young People. Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education, 2(3), 51-55.
13. Umatqulov, T., & To'Xtasinov, M. (2022). О 'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QISQACHA TARIXI. Форум молодых ученых, (10 (74)), 7-9.
14. Kozixodjaev, J. X. (2023). OLIY TA'LIM TIZIMIDA TA'LIM BILAN TARBIYANING MUTANOSIBLIGINI TA'MINLASH BORASIDAGI

MUAMMOLAR. INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022, 2(18), 19-23.

15. Xusanovich, X. S. (2022). XIVA XONLIGIDA XIX-XX ASRNING BIRINCHI CHORAGIGA QADAR DAVRIDA ARXIV ISHI VA UNING ORGANILISHI. Research Focus, 1(3), 94-98.

16. Khusanov, S. (2021). Qozikhona and religious rule in khiva khanate in the beginning of xix-xx centuries. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(12), 758-763.

17. Khusanov, S. (2022). Khiva madrasahs. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(6), 107-111.

18. Khusanov, S. (2022). Historiography of the problem of record keeping and archival affairs of the Khiva khanate in the XIX-early XX centuries. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(6), 93-98.

19. Bekmirzaev, R. B. (2022). Historical and political problems of the Fergana valley. Asian Journal Of Multidimensional Research, 11(6), 104-106.

20. Bekmirzaev, R. B. (2022). Interpretation of inter-ethnic relations in the Fergana Valley from political aspects. The Peerian Journal, 12, 31-34.

21. Begalievich, B. R. (2022). Inter-ethnic conflicts in the south of the Kyrgyz Republic. Eurasian Research Bulletin, 14, 51-56.

22. Bekmirzaev, R. B. (2022). INTER-ETHNIC RELATIONS AND SOCIAL PROBLEMS IN FERGHANA VALLEY. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 3(11), 34-40.

23. Бекмирзаев, Р. (2022). Yangi O'zbekistonda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglikni mustahkamlashning huquqiy asoslarini yaratilishi. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 585-593.

24. Begalievich, B. R. (2023). Analysis of the Fergana Ethnic Conflict. Eurasian Journal of History, Geography and Economics, 19, 49-53.